

## Pedagogik muloqot madaniyati va psixologiyasi

Shaxnoza To'lashboyeva  
Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogikada muloqot madaniyati va undagi psixologik tushunchalar yuritiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi, barkamol, yetuk shaxslarni, yani Komil insonni shakllantirish to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik mahorat, ta'lim-tarbiya, psixologik nigoh, tajriba, axborot texnologiyasi, nostandart darslar, pedagogik texnologiya, tarbiya qonuniyatlari

## Culture and psychology of pedagogical communication

Shakhnoza Tolashboyeva  
Andijan State Institute of Foreign Languages

**Abstract:** This article deals with communication culture and psychological concepts in pedagogy. The main goal and task of the educational process is the formation of mature, mature individuals, i.e. the Perfect Man.

**Keywords:** pedagogical skill, education, psychological perspective, experience, information technology, non-standard lessons, pedagogical technology, educational laws

Bilamizki, o'qituvchining kasbnomasida pedagogik mahorat eng asosiy sifat tarzida berilgan. Pedagogik mahorat, bu ta'lim va tarbiya jarayonini doimo rivojlantirib yuksak darajaga olib chiqish sanati bo'lib, bular bir pedagog uchun xos, qachonki u bolalarni va ishini sevsa. Pedagog bu yuksak madaniyatli mutaxassis o'z fanini chiqur biluvchi, umumiy va bolalar psixologiyasini yaxshi biluvchi, ta'lim-tarbiya metodikasini mukammal biluvchidir.

Pedagogik mahorat shunisi bilan ajralib turadiki, bunday o'qituvchilar har qanday vaziyatdan chiqqa oladi, javob topa oladi va o'quvchilarning tarbiyalaganlik va bilimdonlik darajasining samaradorligiga erisha oladi. Bunday o'qituvchi o'z fanini chuqur biladigan, uning yutuqlari, istiqbollari haqida bilimga mukammal ega, ijtimoiy faol, intellektual shaxs. Nutqsiz muloqot ham pedagogik mahoratda asosiy rol o'ynab, unga mimika, pantomimika, tovush ohangi, harakat, sukut, masofa,

teginish, intonatsiya, qanday holatda turish kirib, uni mahorat bilan bajara olish ham lozim.

Ilg'or pedagogik tajriba bilan ilg'or pedagogik texnologiyaning qonuniyatlari, mezonlari va tamoyillari bir-biriga aralashtirib yubormaslik kerak, ammo ular bir-birini to'ldirishini, uyqash ekanligini, bir xil maqsad va vazifani - Komil insonni shakllantirishini unutmashimiz lozim.

Ilg'or pedagogik tajriba bir fanga oid bo'lsa, ilg'or pedagogik texnologiya esa barcha fanlarga oid bo'lib, interfaol usullar asosida ish ko'radi. Shu o'rinda ikki mashhur pedagoglarning so'zini keltirmoqchimiz. A.S.Makarenko shunday degan edi: "Men bir so'zni 15-20 xil ohang bilan va yuz, tovush, gavdamni 20 xil holatga tushira olganimdan so'nggina o'zimni haqiqiy pedagog den hisobladim". Amerikalik pedagoglar D.Brofi va T.Gudlar esa "O'qituvchi va o'quvchi munosabati" kitobida shunday yozadi: "O'qituvchi uchun muloqot tabiiy va xursandchilik bo'lmasa-o'qituvchi maktabdan ketishga tayyor bo'laversin".

Ammo bu tushunchani shunday tushunmog'imiz lozimki, muloqot har qanday sun'iylikdan xoli bo'lib, tabiiy tarzda bo'lmog'i lozim. O'qituvchi xursandchiligini ham, xafaligini ham, taajjubda ekanligini ham, o'ta xursandligini ham ko'rsata bilsin. Shunda o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladi va ular ham o'qituvchisidan o'rnak oladi. Tarbiya pedagogik hodisa sifatida yosh avlodga ilmiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni aniq maqsadni ko'zlab, rejali va izchil ravishda yetkazishni, har tomonlama rivojlangan kishini shakllantirish mazmuni, vositalari va metodlarini maxsus tanlashni bildiradi. U tor ma'noda ta'lim, o'qitish va tarbiyani yani inson shaxsining barcha tomonlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi, bu ish ta'lim-tarbiya, madaniy, jamoat muassasalarining turli sistemasi va oila orqali amalga oshiriladi. Maktab uslubiy ishlari ta'lim-tarbiya ishlarining maqsadi o'qituvchilarning g'oyaviy-siyosiy-ijtimoiy faoliyat darajasini va 9 zamonaviy pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi va pedagogik mahoratni oshirib borishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkunki- jamiyatning yanada rivojlanib borishi pedagogikaning ta'sir doirasini kengaytiradi. Inson butun hayoti davomida tarbiyalanadi va qayta tarbiyalanib boradi. Pedagogik mahoratda muloqot psixologiyasini bilish lozim, chunki o'quvchilarni ta'lim jarayonida axloqiy xislatlarni shakllantirishida katta rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 97-103.

2. МИРЗАКАРИМОВА МАХЛИЁХОН МАДАМИНЖОНОВНА (2022) "ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙЎНАЛТИРИБ

ЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ”, Novateur Publications, (1), pp. 1–128. Available at: <http://novateurpublication.org/index.php/np/article/view/23> (Accessed: 26 August 2023).

3. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 216-222.

4. Mirzakarimova M. M. The Necessity to Develop Students’ Entrepreneurial Skills in English Classes //Telematique. – 2022. – С. 7128-7131.

5. Mirzakarimova M. EFFECTIVENESS OF STUDENTS’ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 92-94.

6. Madaminjonovna M. M. K. L. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.

7. Madaminjonovna M. M. Innovative Methods and Tools for Developing Students’ Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies //International Journal of Human Computing Studies. – 2023. – Т. 5. – №. 3. – С. 15-17.

8. Мирзакаримова М. М. ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL “INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY”. – 2020. – Т. 1. – №. 1. – С. 63-65.

9. Mavlonova.R.A, Rahmonqulova.H.N, Matnazarova K.O, Shirinov.M.K, Hafizov .S. Umumiy pedagogika. Toshkent 2018.

10. Komilova, V. (2022). O’QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILİYATI. Scientific progress, 3(4), 1150-1155.

11. Abdullayeva, X. Y. (2022). O ‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHASI KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. Academic research in educational sciences, 3(3), 349-351.